



13.10.2025 № 04/MP-22388

dagi № ga

Tadqiqotchi Yusupova Nargiza Nigmatovnaning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha tayyorlagan "Klaster sharoitida ingliz tilini tezkor o'qitishning aralash ta'lim texnologiyalari" mavzusidagi tadqiqot ishi ilmiy natijalari va xulosalaridan davlat ilmiy texnika dasturlari doirasida loyihalarni bajarishda foydalanilganligi to'g'risida

MA'LUMOTNOMA

O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789-sonli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihada Yusupova Nargiza Nigmatovnaning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha tayyorlagan "Klaster sharoitida ingliz tilini tezkor o'qitishning aralash ta'lim texnologiyalari" mavzusidagi tadqiqot ishida olingan natijalaridan foydalanilgan. Jumladan, dissertatsiyaning quyidagi ilmiy natijalaridan:

"aralash ta'lim" tushunchasining mazmun-mohiyati va ilmiy-pedagogik xususiyatlari an'anaviy, masofaviy va internet orqali mustaqil ta'lim olishning integrativ shakllarining kasbiy tayyorgarlik jarayonini jadallashtirishga doir tashkiliy, analitik, diagnostik va prognostik faoliyat bilan gorizontal va vertikal integratsiyalashning autopedagogik imkoniyatlarini innovatsion ta'lim muhitiga mos holda kengaytirish orqali aniqlashtirilgan;

aralash ta'lim sharoitida talabalariga ingliz tilini tezkor o'qitishning metodik tuzilmasi kasbiy tayyorgarlik jarayonining motivatsion, kognitiv, faoliyatga doir, aksiologik, akmeologik, refleksiv komponentlarini aralash ta'lim texnologiyalarini erkin va maqbul tanlash, identiv maqsadni belgilash, real sharoitda ta'lim muhitini dinamik tarzda o'zgartirib borish tamoyillari bilan qayta aloqaga kirishuv darajasi barqarorligini hisobga olish orqali takomillashtirilgan;

nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilini aralash ta'lim texnologiyalari asosida tezkor o'qitishning didaktik modeli o'quv materiallarini yirik bloklarga birlashtirish orqali elektron ko'rinishda o'qitish hamda an'anaviy ta'limni innovatsion talablarga muvofiq tashkil etish modellarining milliy kredit-modul tizimiga adaptivlik darajasini qiyosiylik asosida ta'minlash orqali takomillashtirilganligi bo'yicha takliflardan mazkur loyihada belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan.

Yusupova Nargiza Nigmatovna mazkur amaliy loyihada ishtirok etmagan.

Ma'lumotnoma pedagogika fanlari bo'yicha dotsent ilmiy unvonini olishga taqdim etish uchun berildi.

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**



Y.Ergashov